“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=283

2025-yil
1-son
aprel



Inson huquqlari sohasidagi ta’limni amalga oshirishda davlat organlari faoliyati va ularning hamkorligi

Xolmuhammad Abdurasulov,
Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tayanch doktoranti
Huquqshunos
e-mail: abdurasulovandu@mail.ru

Аннотация. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari ta’limi sohasida amalga oshirayotgan islohotlari, ustuvor yo‘nalishlar va huquqiy bazasi, shuningdek, inson huquqlari ta’limni tashkil etish va amalga oshirishda davlat organlarining ishtiroki, hamkorligi hamda xalqaro hamkorlik masalalari xalqaro va milliy qonunchilik manbalari va statik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Shu bilan birga, mamlakatimizda inson huquqlari sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlarda ta’limning ahamiyati va bu boradagi zamonaviy tendensiyalar muhokama qilingan.

Калит сўзлар. inson huquqlari, BMT, davlat, davlat organlari

Аннотация. В данной статье анализируются реформы, приоритетные направления и правовая база, реализуемые Республикой Узбекистан в сфере образования в области прав человека, а также вопросы участия, сотрудничества государственных органов и международного партнерства в организации и осуществлении образования по правам человека на основе международных и национальных законодательных источников и статистических данных. Кроме того, обсуждается значение образования в реформах, проводимых в нашей стране в области прав человека, и современные тенденции в этой сфере.

Ключевые слова. права человека, ООН, государство, государственные органы

Annotation. This article analyzes the reforms, priority directions, and legal framework being implemented by the Republic of Uzbekistan in the field of human rights education, as well as the participation and cooperation of state bodies and issues of international partnership in the organization and implementation of human rights education, based on international and national legislative sources and statistical data. Additionally, the significance of educationin the reforms being carried out in our country in the field of human rights and contemporary trends in this area arediscussed.

Keywords. human rights, UN, state, state bodies, human rights education

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ikki yirik dunyo urushini boshidan kechirgan va uning eng tuban ko‘rinishlarini o‘z tanasida his qilib ko‘rgan insoniyat endi bu mudhish xatoni qayta yuz berishini oldini olish va konfliktlarni hal qilishda urush vositasidan butunlay voz kechish borasidagi g‘oyalarni ilgari sura boshladi. Xalqaro xavfsizlik va yalpi tinchlikni kafolati sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining tuzilishi, uning Nizomi hamda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qabul qilinishi – bu boradagi xalqaro hamjamiyatning insoniyat huquqlarini himoya qilish yo‘lidagi tarixiy yirik odimlari bo‘ldi. Gap shundaki, insonning turar joyi, irqi, e’tiqodi, tili, millati, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar uning umumiy huquq va erkinliklarini mustahkamlab qo‘ygan xalqaro hujjat tarixda ilk bora xalqaro darajada qabul qilindi. Bu hujjatni ishlab chiqishda AQSHning birinchi xonimi, inson huquqlari faoli Eleonora Ruzvelt boshchiligida bir qator taniqli ekspertlar va ziyolilar jamoasi 2 yil davomida hujjatning har bir so‘zi va iboralari ustida ishladi. Uzoq muhokamalarda keyin 1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh assambleyasining rezolyutsiyasiga binoan hujjat imzolandi. 1950-yilda BMT tomonidan ushbu kunni Inson huquqlari kuni sifatida nishonlash belgilandi.

Shu davrdan shaxs huquqlari va erkinliklarini ta’minlash muayyan davlatning ichki vakolatlarining obyekti bo‘libgina qolmay, balki butun xalqaro hamjamiyatning ishiga aylandi. XX asrning ikkinchi yarmida inson huquqlariga oid asosiy xalqaro standartlar kompleksi hisoblangan Inson huquqlari to‘g‘risidagi Bill va uning tarmoq hujjatlari shakllandi. 150 dan ortiq davlatlar mazkur hujjatlarni qabul qilib, o‘zlarining asosiy qonunlari va milliy qonunchiligida aks ettirdilar. Biroq, ushbu xalqaro darajadagi qonunlarni ratifikatsiya qilishning o‘zi bilangina hujjatlarda anglashilgan ezgu maqsadlarga yetishib bo‘lmasligi kunday ravshan edi. Endi undagi belgilangan insonning asosiy huquqlari va erkinliklariga oid xalqaro normalari va davlatning tegishli majburiyatlarining mazmun-mohiyatini butun davlat hokimiyatining joriy faoliyatiga singdirish, ayniqsa, davlat vakolatlarini amalga oshiruvchi boshqaruv apparatining eng quyi bosqichlariga qadar ustuvor qadriyat sifati belgilash hamda keng omma e’tiboriga tushunarli tilda yetkazish vazifasi turardi. Bu ishlarni esa bevosita ta’limsiz amalga oshirib bo‘lmasdi.

Inson huquqlari ta’limi yoki umuman ta’limga oid inson huquqlari BMTning bir qator xalqaro shartnomalarida mustahkamlangan. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining: “Har bir inson ta’lim olish huquqiga ega... Ta’lim inson shaxsini to‘la barkamol qilishda va inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilishi lozim...”, deb e’lon qilingan 26-moddasidan, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 13-moddasidan, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 29-moddasidan,

Ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyaning 10-moddasidan, Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi konvensiyaning 7-moddasidan kelib chiqadi. Bundan tashqari, BMT Bosh Assambleyasi 1995-yil 1-yanvardan inson huquqlari sohasidagi ta’limning 10 yilligini e’lon qildi hamda uni amalga oshirish yuzasidan Harakatlar rejasini tasdiqladi. 2004-yilning 10-dekabrida BMTning Bosh Assambleyasi barcha sektorlarda inson huquqlari sohasidagi ta’lim dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashish maqsadida Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta’lim dasturini e’lon qildi. Mazkur harakatlar natijasi o‘laroq, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2011-yil dekabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari sohasida ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi deklaratsiyasi qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va umuminsoniy prisniplarga sodiqligini deyarli barcha inson huquqlariga oid asosiy xalqaro shartnomalarga qo‘shilishi bilan isbotlabgina qolmay, xalqaro tashkilotlarning inson huquqlari bilan bog‘liq tashabbuslarni muntazam ravishda qo‘llab-quvvatlab, davlatning tegishli ichki faoliyatiga faol transformatsiya qilib kelmoqda. Ayniqsa, inson huquqlari ta’limi sohasida e’tirofga sazovor ishlar talaygina.

Birgina misol, Samarqand shahri har ikki yilda inson huquqlarining turli muhim masalalariga bag‘ishlangan yirik xalqaro Forumlarga mezbonlik qilib keladi. 2022-yil 5-6-dekabr kunlari ushbu shaharda “Inson huquqlari sohasida ta’lim” Global forumi bo‘lib o‘tdi. 120 nafardan ortiq xalqaro ekspertlar va 2 mingdan ziyod milliy mutaxassislar ishtirok etgan mazkur forumda BMTning Inson huquqlari sohasida ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi deklaratsiyasi hamda Inson huquqlari bo‘yicha Jahon ta’lim dasturini amalga oshirish yuzasidan sarhisob qilish, bu sohadagi ilg‘or tajriba, amaliyot va innovatsion yondashuvlarning taqdimotini tashkil etish, inson huquqlari sohasidagi ta’lim va tarbiya tizimini xalqaro, mintaqaviy va milliy darajada takomillashtirish bo‘yicha fikr almashish va tavsiyalar ishlab chiqish kabi muhim masalalar muhokama qilindi. Shuningdek, Global forum davomida jahonning turli universitetlarining yetakchi professor-o‘qituvchilari tomonidan mamlakatning barcha hududlaridagi oliy ta’lim muassasalari pedagoglari, talabalari, davlat organlari xodimlari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari, jami 7000 dan ortiq tinglovchilar uchun “inson huquqlari bo‘yicha mahorat darslari” tashkil qilindi.

Mamlakatimizda, inson huquqlarini kafolatli ta’minlash bilan birga, milliy ta’lim tizimining alohida tarmog‘i sifatida inson huquqlari ta’limini amalga oshirish bo‘yicha milliy qonunchilik-huquqiy bazasi shakllangan. Yangi O‘zbekiston ta’lim siyosatining inson huquqlari ta’limi qismini bunyod etishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi Farmoni bilan tasdiqlangan 78 ta aniq chora-tadbirlarning amalga oshirilishi nazarda tutilgan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston

Respublikasining Milliy strategiyasi hamda 2023-yil 7-fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturi, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-mayda qabul qilingan "2022-2023-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 81 ta aniq chora-tadbirlardan iborat qarori kabi normativ-huquqiy hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Erkin va demokratik huquqiy jamiyat barpo etish inson huquqlari sohasida ta'limni tashkil qilish darajasiga ko'p jihatdan bog'liq. BMT tomonidan ilgari surilgan ta'lim – demokratiyaning asosi degan ifoda, ushbu masalani hal qilishda maktab, oliy ta'lim muassasalari, o'qituvchilarning roli alohida ekanligini ko'rsatadi. O'zbekistonda 1997-1998 – yildan boshlab "inson huquqlari" kurslari barcha oliy va o'rta-maxsus ta'lim tashkilotlarida joriy qilina boshlandi. Bugun respublikamizning 14 ta hududida joylashgan 114 ta oliy ta'lim muassasalarida, shuningdek, 330 ta professional ta'lim tashkilotlarida "Inson huquqlari", "Ayollar huquqlari", "Bola huquqlari" bo'yicha o'quv va maxsus kurslar joriy etilgan.

Bundan tashqari, yuridik sohadagi mutaxassislarni tayyorlayotgan 7 ta oliy ta'lim muassasalarida (Toshkent davlat yuridik universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti, Termiz davlat universiteti, Namangan davlat universiteti hamda Buxoro davlat universitetlarida) inson huquqlari yuridik fanlar tarkibida yoki alohida fan sifatida o'qitilmoqda. Bundan xulosa qilish mumkinki, inson huquqlarini o'rganish va o'qitish milliy ta'lim tizimining alohida tarkibiy qismi va maxsus tarmog'i sifatida shakllanib ulgurdi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublilasi Milliy markazi – inson huquqlari sohasidagi vakolatli davlat organi sifatida mamlakatdagi inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda davlat organlari faoliyatini mufoviqlashtiruvchi, tushuntiruvchi-ko'maklashuvchi funksiyalarini amalga oshiradi. Ushbu vazifa va funksiyalarni bajarish bilan birga, muassasaning yana bir ahamiyatli faoliyat yo'nalishlaridan biri mamlakatda inson huquqlari sohasidagi ta'limni joriy qilish va tashkil qilishda ishtirok etish hamda ilmiy-metodik ta'minlashda yordam berishdan iborat. Bu borada markaz tomonidan qilinadigan ishlar asosan quyidagi olti yo'nalishda amalga oshiriladi:

Birinchisi, mamlakatning inson huquqlari siyosati va uning ustuvor yo'nalishlari, shuningdek, inson huquqlariga oid xalqaro standartlar va milliy me'yorlarni davlat organlari faoliyatida samarali qo'llash va davlat xizmatchilarining inson huquqlariga oid bilim, ko'nikma va malakalarini oshirib borishda namoyon bo'ladi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda Milliy markaz tomonidan muntazam ravishda o'quv kurslari, seminarlar, treninglar shaklida o'quv mashg'ulotlari tashkil qilinib, davlat organlarida faoliyat olib boradigan davlat xizmatchilari, nodavlat notijorat tashkilot mutaxassislari hamda fuqarolarning tegishli ixtisoslik sohalariga

muvofiq inson huquqlariga oid xalqaro va milliy manbalarni samarali qo‘llash va foydalanish ko‘nikmalari shakllantirib boriladi.

2023-yil davomida Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz, Oliy sud, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Sudyalar oliy maktabi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi hamda Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti hamkorligida tashkil etilgan “Odil sudlovni amalga oshirishda inson huquqlarini ta’minlash” mavzusidagi 4 haftalik “yozgi maktab”da sud va prokuratura tizimining 60 ga yaqin hamda respublikaning 10 ta viloyatida o‘tkazilgan “Qiynoqqa solishga qarshi kurashish: xalqaro amaliyot va milliy tajriba” mavzusida ikki kunlik o‘quv mashg‘ulotlarda sud, prokuratura va ichki ishlar tizimidagi tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar va jazoni ijro etish muassasalarining 590 nafar xodimlari ishtirok etdi.

2023-2024-yillarda tashkil etilgan o‘quv kurslarida 11 ta hududdagi ichki ishlar (50 nafar), prokuratura (10 nafar) va sud (5 nafar) tizimida faoliyat yuritayotgan jami 1285 nafar (2023 y. – 590 nafar, 2024 y. - 695 nafar) xodimlar qiynoqqa qarshi kurashga oid o‘quvlarda bilim va malakalarini boyitdi.

Shuningdek, 2023-yil 27-28-sentabr kunlari Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar Agentligi hamkorligida davlat tashkilotlarida jamoatchilik bilan aloqalar va inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlik uchun mas’ul xodimlar hamda matbuot kotiblari uchun “Inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi davlat siyosati va mazkur sohada xalqaro majburiyatlarning bajarilishi masalalari” mavzusida o‘quv kursi tashkil etildi. O‘quv kursida vazirlik, idora va tashkilot, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklaridan 79 nafar davlat xizmatchilari ishtirok etdi.

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan 2023-2024-yillar mobaynida “Inson huquqlariga rioya etish va uni himoya qilishning xalqaro standartlari: amaliyot va hisobot” mavzusida onlayn va oflayn formatda o‘quv kurslari tashkil etilib, unda 40 dan ortiq davlat organlari va tashkilotlar mutaxassislari o‘qitildi.

Bunda tashqari, inson huquqlarining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan ayollar huquqlari va gender tenglikka oid o‘quvlar tashkil etildi. Xususan, Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz va Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi bilan hamkorlikda “Ayollar huquqlari” o‘quv kurslari dasturi ishlab chiqib, mazkur dasturlar asosida 2023-2024-yillarda 2 marotaba “Ayollar huquqlarini himoya qilishda xalqaro va milliy mexanizmlar“ mavzusida o‘quv kursi tashkil etildi. Mashg‘ulotlarda Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi, uning hududiy bo‘limlari va namunali tumanlararo markazlari direktorlari hamda huquqshunoslaridan iborat jami 93 nafar tinglovchi ishtirok etdi.

Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz, IIV va Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamkorligida “Migrantlar huquqlari: xalqaro standartlar va milliy qonunchilik” mavzusida o‘quv kurslari dasturi ishlab chiqilib, mazkur reja asosida 2023-yil avgust va dekabr oylarida 3 marotaba Toshkent shahri va Namangan viloyatida “Migrantlar huquqlari: xalqaro standartlar va milliy qonunchilik” mavzusidagi o‘quv kursi tashkil etildi. Migratsiya agentligi tasarrufidagi tuzilmalarda faoliyat yuritayotgan 202 nafar xodimlarning migratsiya huquqi va munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro va milliy migratsiyaviy-huquqiy normalar, migratsiya jarayonlarini ma’muriy-huquqiy tartibga solishning nazariy asoslari, zamonaviy bosqichdagi migratsiya sohasidagi davlat siyosatining mazmuni va asosiy yo‘nalishlari yuzasidan bilim va ko‘nikmalarini oshirildi.

2024-yilning 23-avgust kuni Buxoro viloyatida tadbirkorlar va fermerlar uchun “Biznes va inson huquqlari” mavzusida Biznes-ombudsman, Savdo-sanoat palatasi, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz hamkorligida seminar-trening o‘tkazildi. Maxsus o‘quv seminarida tadbirkorlik subyektlari va fermerlar tadbirkorlar huquqlarini himoya qilishga oid qonun hujjatlari bilan tanishtirildi.

Milliy markaz tomonidan zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda davlat xizmatchilari va boshqa shaxslarning inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi malakasini uzluksiz va doimiy oshirish maqsadida 2023-yildan boshlab inson huquqlari ta’limi bo‘yicha “Elektron platforma” *(http://ecourse.nhrc.uz)* ishga tushirilib, ushbu platformaga 5 ta interaktiv kurslar joylashtirildi.

Ikkinchisi, inson huquqlariga doir o‘quv materiallari, qo‘llanma va darsliklar, adabiyotlar ishlab chiqish va xalqaro shartnomalarni davlat tili va boshqa tillarga tarjima qilish bilan bog‘liq ilmiy-metodik va noshirlik faoliyati. Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz tomonidan inson huquqlariga oid kitoblar yaratish hamda nashr ishlari samarali amalga oshirilmoqda. Birgina 2023-2024-yil davomida 10 dan ortiq inson huquqlari rukni ostida inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar matnlari nashr qilinib, 45 ta xalqaro hujjatlar davlat tiliga tarjima qilindi va to‘plam holatda chop etildi.

Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz tomonidan maktabgacha ta’lim muassasalarining pedagog xodimlari hamda tarbiyalanuvchilari uchun “Bola huquqlarini o‘rgatish” va “Bola huquqlari” deb nomlangan uslubiy va ko‘rgazmali qo‘llanma tayyorlandi. Ushbu qo‘llanmalar ta’lim jarayonida foydalanish uchun Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligiga taqdim qilindi.

Shuningdek, Milliy markaz tomonidan O‘zbekiston Milliy kutubxonasi va uning hududiy Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlariga jami 1600 nusxadagi inson huquqlari sohasidagi adabiyotlar beg‘araz taqdim etildi.

Uchinchisi, professional ta'lim va oliy ta'lim tizimidagi tashkilot, muassasalarda inson huquqlariga oid fanlar va kurslarni o'qitishni sifatli va samarali tashkil etilishini ta'minlash.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi mutaxassislaridan iborat ishchi guruh tuzilib, oliy o'quv yurtlari, litsey va texnikumlarda "Inson huquqlari", "Ayollar huquqlari" va "Bola huquqlari"ga oid o'quv va maxsus kurslarini joriy etilganligi, mazkur kurslarning o'qitilish sifatini o'rganish maqsadida monitoring o'tkazildi.

Mazkur ishchi guruh respublikaning 5 ta hududidagi 11 ta oliy hamda 6 ta professional ta'lim tashkilotlarida bo'lib, u yerda faoliyat olib borayotgan 1152 nafar rahbarlar, professor-o'qituvchilar hamda talabalar ishtirokida so'rovnoma shaklida ularning fikrlari va ta'limni tashkil etilish ahvoli o'rganildi.

Monitoring natijalari ko'ra bir qator kamchiliklar aniqlandi. Xususan, so'rovnomalarda qatnashgan respondentlar o'quv va maxsus kurslar bo'yicha ta'limni sifatli tashkil etish uchun darsliklar, multimedia resurslari, o'quv qo'llanmalar yetarli emasligi, ta'lim jarayonida foydalanilayotgan o'quv materiallarni qayta qo'rib chiqish va takomillashtirish talab etilishi hamda moliyalashtirish bilan bog'liq kamchiliklarni ta'kidlagan.

To'rtinchisi, inson huquqlari sohasidagi ta'limning oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichini tashkil qilish va amalga oshirish, shuningdek, bu sohada professional kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi qarori bilan "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ro'yxati"ga 12.00.13 – "Inson huquqlari (yuridik fanlar, sotsiologiya fanlari)" ixtisosligi kiritilishi, shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz huzurida yuridik fanlar va sotsiologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalarini beruvchi Ilmiy kengash tuzilganlgini alohida e'tirof etish mumkin.

2021-2024 yillarda mazkur ixtisoslik bo'yicha 14 nafar doktorant, 34 nafar mustaqil izlanuvchi ilmiy tadqiqot olib borgan. 2023-2024 yillarda inson huquqlari ixtisosligi bo'yicha 1 ta doktorlik (DSc) dissertasiyasining himoyasi hamda 3 ta yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi himoyasi amalga oshirildi.

Beshinchisi, inson huquqlari ta'limiga oid faoliyatni rag'batlantirish.

Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz tashabbusi bilan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi hamkorlikda 2023-2024-yillar mobaynida 2 marotaba "Inson huquqlari va erkinliklari sohasida ta'lim va innovatsiyalar" milliy tanlovi o'tkazildi. Tanlovga ko'ra, inson huquqlarining turli jabhalarini qamrab olgan 6 ta nominatsiyada e'lon qilinib, ishtirokchilar soni 2023 yilda – 81 nafarni, 2024 yilda esa 819 nafarni tashkil etdi hamda tanlov g'oliblari qimmatbaho va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Oltinchisi, inson huquqlari bo‘yicha ta’lim sohasida xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish masalalari bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshirish.

2023-2024-yillar davomida YXHTning O‘zbekistondagi loyihalari koordinatori bilan hamkorlikda inson huquqlari bo‘yicha ta’limga bag‘ishlangan 13 marotaba hamda BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari Boshqarmasining Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy vakolatxonasi 12 marotaba ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va muloqotlar tashkil etilishi bu sohadagi ishlar natijadorligining isbotidir.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘quv qo‘llanmalar tayyorlandi. Xususan, YXHTning O‘zbekistondagi loyihalari koordinatori bilan hamkorlikda “Nelson Mandela qoidalari” (jazoni ijro etish muassasalari xodimlari uchun), “Favqulodda vaziyatlarda ayollar va bolalar huquqlarini ta’minlash”, “Gender muammolari va tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha qo‘llanma” (3 tilda) kabi o‘quv qo‘llanma tayyorlanib, nashr etildi.

2024-yil xalqaro inson huquqlari kuni arafasida Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz tomonidan ushbu sohada ta’lim, ma’rifat va madaniyat yo‘lidagi jadal taraqqiyotni davom ettirish maqsadida muhim tashabbuslardan biri amalga oshirildi. Jahonda ilk bora mamlakatimizda “Inson huquqlari uyi” faoliyat yurita boshladi. Ushbu ma’rifat maskani faoliyatini tashkil etishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda “O‘zinfokom” Davlat axborot tizimlarini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yagona integratori, boshqa hamkor tashkilotlar ishtirok etdi. Bugun “Inson huquqlari uyi”ning umumiy fondini 10 mingga yaqin nusxadan iborat kitob va jurnallar tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi bugunga qadar BMTning inson huquqlariga oid asosiy 7 shartnomasi va 80 dan ortiq xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilgan. Bu o‘z navbatida, mamlakatga inson huquqlariga oid turli yo‘nalishda muayyan ishlarni amalga oshirish majburiyatini yuklaydi. Shundan kelib chiqqanda, davlat hokimiyatini vakolatlarini amalga oshiruvchi barcha davlat organlari va ularning tarmoqlari faoliyati inson huquq va erkinliklarini ta’minlash va himoya qilish bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Shu ma’noda, inson huquqlari sohasidagi ta’limni amalga oshirish davlat organlarining muhim vazifalaridan biridir. Ushbu jarayonda huquqiy ong va madaniyatni tarkibiy qismi bo‘lgan inson huquqlari madaniyatini shakllantirish, fuqarolarning o‘z huquq va erkinliklarini bilishi va ulardan to‘g‘ri foydalanishiga ko‘maklashish asosiy maqsad sifatida qaraladi.

Jamiyatda inson huquqlari madaniyatining shakllanishi inson huquqlari sohasida ta’lim berish tizimining mavjudligiga bog‘liqdir. Ya’ni, bilim va ko‘nikmalarni singdirish orqali inson huquqlari

umumjahon madaniyatini shakllantirish va ushbu yo‘nalishda to‘g‘ri pozitsiyani qaror toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson huquqlari madaniyati darajasini yuksaltirish huquqiy davlatni shakllantirishning muqarrar shartidir. Bu borada davlat hokimiyatining barcha mexanizmlari faol va yakdil sa’y-harakatlarni amalga oshirishi eng muhim jihatlardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948-yil, 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko‘rsatmasi orqali qabul qilingan.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil 1-may.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-46-son qarori.

Mo‘minov A.R., Tillabaev M.A. Inson huquqlari. –T.: Adolat, 2013.

Saidov A.X. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. / Mualliflar jamoasi: A. Saidov, F. Bakaeva, K. Arslanova va boshqalar. Mas’ul muharrir A.X. Saidov. –T.: “O‘zbekiston”, 2010. – 368 b.

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasi. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi. –T.: 2020.

Inson huquhlari sohasida ta’lim: xalqaro tajriba va milliy amaliyot / Mas’ul muharrir A.X. Saidov. - Toshkent: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2022. – 98 b.

Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar: to‘plam/O‘zbekcha nashrining mas’ul muharriri A.X.Saidov. –T.: “Adolat”, 2004. – 520 b.

2023 yilda O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari bo‘yicha xalqaro majburiyatlarga rioya qilinishining holati to‘g‘risida axborot. - Toshkent: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2024. – 56 b.

BMT sayti:

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari Milliy bazasi:

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi sayti